



*Buyuk Yaratuvchi dunyoga turfa ne'matlarini sochib qo'ydi va bu ne'matlarga bir-biriga rahnamolik qilishni buyurdi. Hukm ijro bo'ldi: yo'q narsa borga, ushoqlik ulug'likka, oddiygina mavjudlik mo'jizaga do'ndi. Ya'ni, quyosh donga nur uzatib edi, bug'doyzor bo'ldi. Buloq hovuchida suv tashib edi, ildiz larzon boqqa aylandi.*



*Qush bolasini yedirdi, yetakladi, sor lochin bo'ldi. Polapondakkina, kaftga siqqudaygina bir parcha go'sht zaminga tushdi, otasi soyabon bo'ldi, onasi balogardon bo'ldi – hazrati Inson qad ko'tardi!*

*Qo'l siylamoqqa, ko'z muhabbat uzatmoqqa, so'z ko'ngil o'stirmoqqa yaralgandir. Oyoq bizni kimningdir qoshiga yetaklash uchun, quloqlarimiz roz tinglash, yurak odamlarni sevish va sog'inish uchun va ruhimiz esa bu yo'qlash, bu asrash, bu mehr ulashishlardan yayrash uchun yaralgandir! Insonchilikning iqlimi shu, ota meros, ona meros farzu qarzimiz, yashash tarzimiz shu!*

*Demak, bu ko'hna dunyo ulkan o'quvxonasi, hamma har xil darajotdagi murabbiydir. Kim astoydil, kim o'z holicha! Dunyoning yasharishi, insonlarning yuksalishi, niyatlarning ushalihi murabbiylikning quvvatiga bog'liqdir.*

*Kimlardir o'qitdi va sen ilmi bo'lding. Kimlarnidir kuzatib, tirikchilik yo'llarini, ro'zg'or tutishni o'rganding va hokazo... Ammo shuni unutmaylikki, bizga hosil berayotgan har bir harakatimizning zakoti bo'lishi shart! Insondagi to'plangan ilm, tajriba ulusning haqidir, birovlardan o'rganib, bir narsalik bo'lyapmizmi, tamom, bu qarz! Darhol yonimizdagilarga shu bilimni berib o'tmasak bo'lmas! Yo'qsa, ertangi yo'limiz barakotsiz bo'lur, barakoti bo'lsa-da, Yaratgan uni bizga yuqdirmagay, singdirmagay!*

## MURABBIYLAR KIMLAR?

Murabbiylar kimlar? Bular otalar, onalardir. Bular aka-opa, amaki-tog'a, amma-xolalardir. O'qituvchilar, tarbiyachilardir. Bular hunar o'rgatayotgan ustozlar, qo'shni bolaga nasihat qilayotgan hamsoya, ibratli ertagu o'gitlar xazinasi bo'lgan buvi-buvalar va kelin tarbiyalayotgan qaynonalardir. Kamchiligingni birgalashib o'nglayotgan do'sting ham murabbiy! Garchi gaplashib ko'rmagan bo'lsang-da, sen kiyinishini, muomalasini, yurish-turishini havas qilayotganing – ko'z tanishing ham murabbiydir.

Agar ziyrak bo'lsang, asfaltni yorib chiqayotgan maysa, intizom bilan bir chiziqqa tizilib uchayotgan laylaklar ham saboq berayotganini ko'rasan. Yo'lakda senga nazokat bilan yo'l berib, kayfiyatingni ko'targan yo'lovchiyu malolini solmay, besharpa yashab kelayotgan tamizli qo'shninggacha bahosi yo'q murabbiydir!

Bu dunyo to'la murabbiy va dunyoda hamma mavjudlik murabbiyga muhtojdir! Atrofga xolis ustozlik, murabbiylik qilish — bu ibodat, murabbiylardan ishtiyoq bilan ilm, hunar va tajriba o'rganish esa yana ibodatdir.

## MURABBIY BO'LISHNING SHARTLARI

Deylik, siz murabbiylikni hech orzulagan emassiz. Ammo shuni unutmaylikki, o'rtada yurganki odam, jamoa bilan yashayotganki odam diqqat markazidadir. Uning har bir gapi, hamma ishi kuzatiladi. Demak, u murabbiylik maqomidadir. Insonning bir kamchiligi bor, o'gitu nasihatlarini xushiga yoqsagina qulog'iga oladi, asosan esa ko'rganlariga taqlid qiladi, ergashadi. Shu nuqtai nazardan aytganda, bugungi o'zimizni tutishimiz, kiyinishimiz va tutumlarimizdan yoshlar qanday andoza olyaptilar? Biz, kattalar, millatimiz, zotimizning rangi, tusida turibmizmi? Ona tilimizda o'zimiz yayrab, birovlarining ham yuragini yozadigan qilib gaplasha olyapmizmi?

Insonlar ergashadigan fazlu kamolingiz bo'lsa, koni savob ichrasiz. Agar atrofga qusuringiz o'tsa, qancha odam sizni takrorlayotgan bo'lsa, o'shalarning jami gunohiga teng sheriksiz!

Deylik, siz ustozlikni orzu qilgansiz va shu yo'ldasiz. Ammo jild-jild kitob o'qib, yiqqan ilmini va'zga aylantirib, ko'rgazmali qurollar to'plab, turfa uslublar qo'llab, o'qityapman, uqdiryapman deyish hali murabbiylik emas. Siz insonlarning hech yo'q bir shoxini ko'kartirish, qulfi dilini ochish, dunyosini kengaytirish, kechagi holatidan bugunini yuksakroq qilish uchun bu ishga qo'l urdingiz. Ammo oldin biling: umringizni sarflab olib borayotgan harakatlaringiz ro'parangizdagi tinglovchiga yuqyaptimi, yo'qmi? Bori gap shunda!

Murabbiylikni xohlagan, shu kasbga o'qiganki odam murabbiy bo'lib qolmaydi. Ustozlikning o'ziga xos parhezleri, bosib o'tilmaydigan chegara chiziqlari bordir! Birinchidan, dilingizda ustoz-tarbiyachilikning yozilganu yozilmagan qonun-qoidalariga bo'ysunaman degan QASAMINGIZ bo'lsin!

Ikkinchidan, NIYaTINGIZ SOF bo'lsin! Men odamlarni faqat yaxshilikka o'rgataman deng, orqamda o'z qo'lim bilan yaratilgan fayzli bog'lar qoladi deb tilang! Toki shogirdlaringiz sizning sharofatingiz bilan faqat savobga daxldor bo'lsinlar.

Uchinchidan, haqiqiy murabbiy bo'laman desangiz, birovga bir narsa o'rgatishni astoydil xohlang va sizdan ilm oluvchiga muhabbat qo'ying! Har bir ishingizga bemor bolasiga parvona bo'layotgan onaday berilib, fidoyilik bilan tutuning. Buning otini IXLOS deydilar! Shu ishtiyoq sizda qancha kuchli bo'lsa, Tangri sizga shuncha ko'p uquv beradi, ep beradi, mushkullaringizni O'zi osonlashtiradi.

Murabbiylikda ta'tilga chiqish, sog'ligi, kayfiyatiga qarab faoliyatni to'xtatish degan gap yo'q. Yo'lda ham, cho'lda ham, hamma fasl, hamma manzilda, qo'yingchi, umringizning oxirgi nuqtasigacha siz ish ustidasiz. Bu degani, sizning borligingiz, har bir so'z, har ishorangiz odamlar uchun nur, madad va xaloskordir.

## BOLA — BUYUKLIK

Bola eng toza, eng nafis va eng buyuk mavjudotdir. Shuning uchun tozaki, u hali bu yoshda gunoh qilishga ulgurmagan bo'ladi. Hamma narsaga hayrat va hayajon bilan qaraydi. U kattalarni juda aqlli, ishonchli, ibratli deb biladi. Bola rostu yolg'oningizga chippa-chin ishonadi.

U g'oyat nafisdir, uning hali himoya quvvati yo'q, u bori-yo'g'i bir kurtak xolos, shu faslida uni sovuq urmasin, aldovga yo'liqmasin, zarbaga duchor bo'lmasin! Bir aldov bolada ming ishonchni poymol qilishi, bir zarba uning murg'ak dunyosini ostin-ustin qilib yuborishi mumkin. Ayting, ayting, bolaligida sinib qolmasin bandasi. Hayotdagi qalban nogiron, ya'ni ichi tor, alamzada, qo'rroq, birovga ishonmaydigan, qahri qattiq odamlar bolalar ko'nglini asray olmaganlikning natijasidir.

Bolalarning buyukligi shundaki, ular Yer kurrasining ertangi egalari, kelajak tarixini bituvchilardir.

Ularning sharofati shundaki, ota bo'lgan erkak o'zini podshoh, ona bo'lgan ayol esa o'zini malika sanaydi! Ota-ona uchun farzand jannatiy ta'm, jannatiy iqlimlar beruvchi ne'matdir!

Ayting-chi, birodar, shunday buyuk zot qoshiga shunchaki ro'baro' kelib bo'ladimi? Bu ishga kirishmak uchun qalban va jismonan poklik zarur. Katta taraddud zarur! Bir noqobil shifokor bir bemorning umriga kushanda bo'lishi, no'noq muxandis bir murvatni ishdan chiqarishi mumkin. Noqobil muallim esa har gal bir sinf bolaning ma'naviyatini kasal qilib chiqaveradi. Bu – xatar! Bu kechirilmas jinoyatdir!

Nazardan qolganlar, qarg'ish olganlar, loqaydlar tarbiya maskanlariga qadam bosmasliklari kerak. Avvalo ular o'zlariga jabr, o'zlariga qiyin qiladilar. Ular ishlayveradilar, ammo ularga o'qituvchilikning puli yuqmaydi, ro'shnolik ko'rmaydilar, falokatlari arimaydi, niyatlariga yetmaydilar. Chunki muqaddas kitoblarda "neki bersak, egallab turgan kasbi koringizdan berurmiz" deb qo'yibdi. Kasbga halollik ham bir ibodatdir.

### **USTOZ SHIKOYAT QILMAYDI!**

Tarbiyachilikda eng xunuk narsa – o'qituvchining o'quvchidan shikoyat qilishidir. Oramizda shundaylar bor, bolalarni yaxshi-yomonga ajratadilar. Hatto ayrimlarini o'zlariga dushman saylab, uni qitmirlik bilan ta'qib qiladilar. Hali o'qituvchilar xonasiga, hali direktor, hali ilmiy mudir qoshiga ta'zirini bermoqqa tortqilaydilar. Darslaridan quvib soladilar. O'sha sinfga rahbar bo'lgan muallimga kun yo'q, ko'zga ko'rindi deguncha shikoyat!

Tang qoladigan joyi shuki, ba'zan 15-20 yil ishlab qo'ygan muallimlar ichida ham qaysidir sinfning to'polonchiligi, davomati yomonligi yoki uning fanidan oqsovchilarning ko'pligidan shikoyat qiladiganlar bor. Sinf rahbariga o'tkazib qo'ygan haqini talab qilayotganday, qo'llarini bigiz qilib dag'dag'a qiladi!

Hoy, birodar, bu bilan zaifligingni, yaroqsizligingni tomga chiqib e'lon qilmayapsanmi? Senga 45 minutlik dars hokimligi berildi. Bolaga ilm berish degan kasbga besh yil o'qigansan, bir necha yildan beri maktab atalgan bolazorda tajriba yig'yapsan, nega bolaning tilini topolmaysan, shu kungacha nima ish qilib yurding? Dars seniki, fan seniki, bu soatning ish haqini ham sen olasanu bolalaringni sinf rahbari tinchitib bersinmi? Darsingni o'tolmayotganingni qo'y, eng yomoni, o'sha sinfning intizomini buzib chiqyapsan! Bolalarda hamma ustozni ham eshitish shart emas, ularni kalaka qilsa bo'laveradi, degan fikr uyg'otyapsan!

Kimki men faqat fanim uchun javob beraman, intizom bilan sinf rahbari shug'ullanadi degan gapni aytsa, u muallim emas! Biz hatto bolaning ota-onasiga ham intizom uchun faqat siz qayg'urasiz, deb ayta olmaymiz. Birinchi ishimiz – tarbiya. Keyin ilm! Ilm ilohiy ne'mat, uni esa tarbiya yo'q joyga sohib bo'lmaydi.

### **BOLA – GUL**

Inson degan imoratni ko'ngil ushlab turadi. Bolaning o'sha joyini ehtiyot qiling. Ko'ngli sinib qolmasin, u g'oyat ta'sirchan – birovdan qattiq sovib qolmasin. Qaerdan bilasiz, agar asrab-avaylansa, balki u ertaga buyuk inson bo'lar, elning dardini oladigan, mushkul ishlarning chorasini topadigan solih farzand bo'lar. Mayli, undan olim chiqmasin, mansabdor chiqmasin, ammo u o'zidan tarqaydigan sulolalar boshi ekanligi

aniq-ku, hech yo'q, uning hazrati insonligi, lekin hozircha juda nafisligi yodimizda tursin!

Yurak yaralishdan mo'rt narsa, sinamoqqa bolangizni qo'shnining oldida bir uyaltirib ko'ring! Jovdiragan ko'zlaridagi xijolatchilikka yuragingiz uvishib ketadi, shu asnoda o'zingizni yomon ko'rib ketasiz, ishingizga pushaymon yeysiz! Siz esa 5-, 6-, 7-sinf, hatto bo'yi yetib qolgan yigit-qizlarni o'ttizta o'quvchining o'rtasida mulzam qilyapsiz. Bolaning bahorday vujudida nafrat uyg'otyapsiz, iqlimini zaharlayapsiz! Bu hol yana bo'laversa, uning beti qotadi, tanqiddan uyalmaydigan bo'lib qoladi. Bola uchun so'zning mo'jizasi yo'qoladi, xohlagan kishisiga xohlagan gapini beparda gapiradigan beandishaga aylanadi. Bunday bolalar esa baxtli bo'lolmaydilar, birodar!

### **HAR BIR BOLA – BIR VATAN!**

Bu voqea hech esimdan chiqmaydi. 4-sinfga rahbar edim. Bir o'qituvchi o'quvchilarim haqida shikoyat qildi, sinfga bo'g'ilib kirdim. Kayfiyatimni ko'rib bolalar ham jim cho'kishdi. Bir-ikki zardali tanbeh bergan bo'ldim. Qarabsizki, uyulgan qovog'imni ha deganda ocholmay, darsni boshlolmay turibman. Ular ham, men ham sukutda. Shu payt Murod degan o'quvchim shitob bilan qo'l ko'tardi:

— Ha, nima deysan? – deyman xushlamay.

U derazaga o'ychan tikilganча, avval uzun “uf” tortdi, so'ng:

— Bugun havo juda yomon-a, — dedi hasratli ovozda.

Yana nima der ekan deb qarab tursam, o'sha xomushligicha indamay yana o'tirib oldi. Ajab holat! “Jahlim chiqib turganda havoni nega o'rtaga solasan?” desam, bolaning obro'si sinadi. U yaxshi bola. Hazilga yo'ysam, sinfga qilgan shuncha siyosatim bekor ketadi. Shunda o'zimni nohaq ekanligimni angladim, angladimu qovog'imni ochmaygina: — Nimasini aytasan, bugun og'ir kun bo'ldi. Sizlarni ham qiynab yubordim, shekilli, — dedim siniqlik bilan. Shu tarzda uzrimni aytib oldim o'zimcha...

Havo tund. Mening qovog'im soliq. Ustiga ustak zarda bilan turibman. Shikoyat uch kishi ustidan edi, qolgan yigirma sakkizta bolada nima ayb? 45 minut davomida ularning kayfiyatini buzishga nima haqqim bor edi? Bu bola-ku beg'uborlik bilan yuragi siqilayotganini aytib yubordi, ammo bechora yoshlarning aksariyati biz, kattalarning, turfa fe'llarimizga chidab yashaydilar.

Biz, aqlli kattalar, toshi og'ir fe'llarimizni kichkinagina norasida jonlarga yuklab o'tayotganimizni hech o'ylab ko'ramizmi? Bu gap ota-onalarga ham tegishlidir. Biz farzandlarimizga deyarli har doim o'zimizning kayfiyatimizga qarab muomala qilamiz. Ularning holati, yuraginging ko'tarish-ko'tarmasligi bilan ishimiz yo'q. Bola ham hamisha xursand yurmaydi-ku, uni ham o'ylantiradigan o'z dunyosi bor! Shoir Abdulla Oripovning bir yozmishida: “Har bir inson — bir vatan, uning chegarasini buzib kiraverishga hech kimning haqqi yo'q”, deyiladi. Murabbiy esa insonlarni asrash va parvarishlash uchun dunyoga kelgandir.

### **“BOLA – SHIRIN DUSHMAN”**

Bola o'zidan kattalarni kuzatib, ularga taqlid qilib, qitmirlik bilan izlaridan tushib, yaxshi-yomon tomonlarini o'g'irlab, o'ziga yuqdirib boradi. Siz yosh yigit yoki qizga qarab, uning oilasi, mahallasiyu qishlog'i, ustoziyu murabbiysining qandayligiga baho beravering. O'zimiz qolganda shoshilsak ham, bola bor joyda xuddi imtihon topshirayotganday ziyrak va hushyor turishimiz shart. “Bola – shirin dushman” deganlari haqqi rost! Sen kamchiliklaringni yashirib, aqling ko'paygach, ularni bartaraf qilishga urinib yashaysan.

Hatto allaqachon ayb ishlarini to'g'rilab yuborgandirsan. U esa senda ko'rgan o'sha xatoni xotira xaltasida ko'tarib yuraveradi va bir kuni takrorlaydi, qarabsanki, elning o'rtasida sharmanda qiladi! Kuydiradigan farzand borki, sifatsiz ota-ona va sifatsiz murabbiyning mahsulotidir.

### **LAFZ XUSUSIDA**

Bolaga va'da berdingmi, albatta bajar. Eng mayda va'da ham va'da! Masalan, "Ertaga ko'ylagingning dazmollanganini ko'raman", "Tuflingning moylanganini tekshiraman", deb aytdingmi, ijrosini unutma. Ijroni bir marta unutsang, tamom, tarbiyaning jilovi qo'lingdan ketadi! Bola senga ishonmay qo'yadi. Eng yomoni sendan hafsalasi pir bo'ladi! Axir o'sha kuni ko'ylagini astoydil dazmol qilgan edi yoki tuflisini qanday yaraqlatib kelganini bir ko'rsatmoqchi, sendan rag'bat so'zlarini eshitmoqchi edi! Undan ham yomoni shuki, "Falonchi inson ham va'dasida turmasdi-ku, men ham gohida shunday qilsam nima bo'libdi" deydi va fe'lida betayinlik boshlanadi! Bergan va'damizni bajarishga imkon bo'lmasa, ulardan albatta uzr so'rash kerak. Boladan uzr so'rash oriyat emas. Kattalar ham xato qilishi mumkinligini va xato qilgan odam uzr so'rashi kerakligini ular yoshlikdan bilib borsinlar. Toki ulg'ayganlarida "Men ota-onaman yoki murabbiyman, kattalar uzr so'ramaydilar", deydigan xudbinlarga aylanib qolmasinlar.

### **JAZOLASH MURABBIYLIK EMAS**

U maktabning katta ustozlaridan biri edi. Har bitta gapini salmoqlab, past ovozda, g'oyat aqlli qiyofada gapirardi. Ammo fe'li chatoq edi. Yo'lakda bir bola birorta qizning sochini tortib qo'ysa yo bir – biri bilan quvlashsa, ko'rdimi, tamom, darhol xonasiga qamaydi. Bir pasdan keyin bola bechora ko'zida yosh, qulog'ining tagi qizargan holda chiqib kelaveradi. Darsida o'quvchilarini eplab tinchitilmagan o'qituvchilar bu "mohir" tarbiyachiga "gunohkorlarni" olib chiqaveradilar, u esa surishtirmay jazolayveradi. Ba'zan bola sho'rlik uning hukmi bilan soatlab o'qituvchilar xonasida tik turishga majbur. Bir kuni ish bilan shu odamning xonasiga kirib qoldim. Yettinchi sinfning bir bolasi yig'lab-ko'pchib turibdi. Bilsam, u yomon ish qilibdi. Uyidan 150 so'mni (u paytda bu katta pul) bildirmay olib chiqib, yarmiga o'rtoqlarini mehmon qilibdi, yarmini o'g'irlatib qo'yibdi. Arz bilan kelgan bolaning onasi ekan... U o'quvchiga uch yildan beri dars berardim, bilamanki u yomon bola emas. Bolalik-beboshlik qilib qo'ygani aniq. Vaziyatga quloq solsam, mudir besh yuz o'quvchini yig'ib, "gunohkor"ni sazoyi qilmoqchi, boshqalarga ham shu yo'l bilan "saboq" bermoqchi bo'lyapti. Bolani tashqariga chiqarib yubordim. Mudir bilan ancha tortishdik. — Bugun uyidan olib chiqibdi, ertaga birovning cho'ntagidan oladi, uni ko'pning o'rtasida bir qo'rqitib qo'yish kerak, — derdi u. U deb, bu deb, oxiri agar yana shunday qilsa, o'zim javob beraman, degan va'da bilan uni shashtidan qaytardim. Bolaning o'zi bilan esa bir marta ko'ngildagiday gaplashib oldik, tamom, bu hol boshqa takrorlanmadi... Agar u o'shanda sazoyi qilinganidami, yo alamidan yana shu ishga qo'l urardi, yo uning oti bir umr "o'g'ri" bo'lib qolardi. Hozirda u bir korxonaning ilg'or ishchilaridan, tinib-tinchib, elning nazarida yuribdi.

### **BO'RIGA TOPSHIRILGAN QO'ZICHOQLAR**

Goho rahm-shafqatni ham me'yoridan oshirib yuboramiz. Qaysidir o'qituvchining kasbiga butunlay nomunosib ekanligini hamma ko'rib tursa ham, undan faqat ziyon yetib tursa ham, darhol bahridan o'tolmaymiz: bolalik deymiz yo ayol deymiz, beva deymiz yo ... falonchiga qarashli deymiz va hokazo. Uning uch yo to'rt bolasiga qayg'uramiz, ammo yuzlab xalq farzandlarining bilimi, tarbiyasi, taqdirini qo'zichoqni bo'riga topshirganday ularning qo'liga topshiramiz! So'ngra loqayd, dunyoqarashi tor, chalasavod odamlar qaerdan keldi deb, fig'on chekib yuramiz! Xo'sh, qachongacha shunday qilamiz?! Eng injiqlik bilan mutaxassis tanlanadigan joy maktab bo'lishi kerak. Chunki bu dargohda jamiyatning sifat masalasi hal qilinadi.

\* \* \*

Bir muallima bor edi. O'zi chiroyliyu axloqi xunuk edi. Eng dahshatlisi shuki, u ezgulik fani – adabiyotdan dars berardi. Qilmishlarini eshitib, uning ko'ziga siz uyalib qarolmasligingiz mumkin, ammo unda na andisha, na hayo bor edi, go'yo yengiltaklik unga unvon qilib berilganday, qomatini g'oz tutib, bir gapirib, o'n kulib yurardi. Maktab rahbarlari ham unga botinib gapirolmasdilar. Sababi, eri nufuzli idorada ishlardi. Bu muallimaning dars berolmasligi bir sari, ammo uning aqli rasoligiga hali-hanuz gumonim bor: agar o'quvchi ayb ish qilsa, qirq besh minut davomida stulni boshi uzra ko'tarib turishga majbur qilar ekan! U bola o'n yosh, o'n bir yosh! Ayolning, onaning ham diydasi shunday qattiq bo'ladimi?

\* \* \*

Yana bir toifa muallimlar bor. Bundaylarni maktab rahbarlari maqtaydilar, hatto ibrat qilib ko'rsatadilar. Chunki ularning darslarida davomat joyida, o'quvchilar jon hovuchlab bo'lsa-da, shu o'qituvchining topshiriqlarini bajaradilar. Nafsilamrini aytganda, o'qituvchi fanini yaxshi biladi. Ammo bolalar har gal unga ro'baro' kelganlarida bir qalqib oladilar. U kirsam, sinfga ilon kirganday bo'ladi. A'lochiyu ikkichi yuragini changallab, kichrayib o'tiradi. Chunki bu zot xohlagan paytida o'quvchining boshida haqorat toshini sindiraveradi. Javobda sal adashdingmi yo yonboshingga sal qarab qo'ydingmi, tamom! Dars tayyorlamasang-ku tugadim deyaver! Hayo, andisha yo'q. Otilayotgan malomat toshidan vujudingga o't ketadi, yer yorilsa, kirib ketsam, deysan. Muallim esa sinfdan mag'rur va masrur chiqadi. Bolalarning uni ko'rganda zir titrashlari, sarosimaga tushishlaridan zavq oladi. "Mana, qattiq turganim uchun, bolalar fanimni yod olyaptilar" deya g'ururlanib ham qo'yadi.

Aslida bu muallimni jazolash kerak! Chunki u murg'ak insonning yuragini darz ketkizyapti, asablarini qaqshatyapti. Kelajakka hurkak musichalar emas, ruhiyati butun, sog'lom kishilar kerak!

\* \* \*

Bir kuni o'zini o'ta "ziyrak" biluvchi bir muallim Amerika ochganday iljaydi-da:

— Falonchi qizga bir yigitdan g'alati xat kelibdi, o'qib beraymi? – dedi.

Boshqa bir o'qituvchi esa:

— Nima uchun zo'rg'a "uch"ga tortadi desam, ishlar oshiq-ma'shuqlik ekan-da! Yaramasning ota-onasini chaqirtiring, xatni ko'rsating. Bugun xat yozsa, ertaga yetaklashib ketadi, - deya hukm o'qidi!

Yuragim zirqirab ketdi. O'qituvchilarmi bular yo maqtullarmi?! Agar aytgan ishlarini

qilsalar, bolaning yuragi nima bo'ladi? Ularning qo'lidagi mushuk emas, odam bolasi-ku! Mushukni ham irg'itib o'ynamaydilar axir!  
Bola – bugun bola. Ertaga ulg'ayadi. Haligi muallimlar shularning orasida yashaydi. Ayting-chi, endi uning qanday obro'si bo'lsin? Bu qismatni-ku o'zi sotib oldi, ammo undan bolalarga yetgan ziyonni qanday qoplab bo'ladi!

\* \* \*

“Aldagani bola yaxshi” naqlini dastur bilib, o'quv maskanlarining badaniga yopishib olgan o'z kanalari, zararkunandalari bo'ladi. Ular har ikki qadamning birida uchraydi. Aksariyati iligida illati bor odamlar. Ochiq muttahamlik o'tmaydigan joyda yozishga tushadilar. Bundaylar bor joyda rahbar bo'lish ham, yonma-yon ishlash ham oson emas. Qani, bu “yozg'uvchi”ning ishidan ayb topib ko'rsinlar-chi, dars soatini ozroq ajratsinlar-chi! Uning xatlari sabab, maktabni necha bor bemahal tekshiruvchilar bosgani bosgan. Bir kuni shundaylardan biri direktorga shang'illay ketdi:  
— Hali men darsimni eplolmay qoldimmi?! Beva xotinning oyligini kamaytirishni ko'rsatib qo'yaman senga! Shunday qilamanki, qochgani teshik topolmay qolasan!  
O'zi uddalab dars o'tolmaydi. O'qituvchilarning dami ichida, xatosini aytsangiz, ko'cha demaydi, o'quvchilarning orasi demaydi, jami xunuk atamalarni bo'yningizga ilib tashlaydi, gapi qolmasa, behush bo'lib yotvoladi!... Ammo u hammadan ko'ra xotirjam yashaydi. Chunki maktabning “norasmiy xo'jayini”! Hech kim mushugini “pisht” deya olmaydi. Qurol – andishasizlik! Axir ko'ra-bila turib, bolalarni uning qo'lga topshirish shaytonni imom saylashday gap-ku!

\* \* \*

Bunga ancha yillar bo'ldi. U maktabning jamoasi ahil, direktori hammaga manzur, mohir tashkilotchi edi. Ammo ular bilan bir xulqi yomon ayol ham ishlardi. Uning ko'cha-ko'yidagi qilmishlari jamoani qattiq xijolatga solar, buning ustiga ishini ham eplay bilmasdi. Rahbar uni bir necha bor insofqa chaqirdi, obro'lik muallimlar o'rtaga olishdi, bo'lmadi. Hech natija bo'lmagach, uni ishdan bo'shatishga qaror qilindi. Biroq ayolga darhol yo'l ko'rsatuvchilar topildi. Ularning maslahati bilan u imzoli va imzosiz shikoyatbozlikni boshlab yubordi. Bu sho'ro paytida edi, Moskvagacha yozdi. Qarabsizki, eri yo'q, uch bolali ayolni ishdan bo'shatgani uchun direktor o'z vazifasidan chetlatildi.  
Bu odam direktor qilib tayinlanganda maktabning endigina poydevori yotqizilayotgandi. Taxtalarning ichida tunab yurib, uni maktab holiga keltirdi. Necha ozib, necha to'zdi va besh-olti yilning ichida bu maskan shahardagi eng obro'li maktablar qatoridan joy oldi. Shunday fidoyi, bo'lmaydiganni ham bo'ldiradigan jonsarak odam ketib, battol ayol ishlab qolaverdi. Bu nopok ayolni nafaqat o'qituvchilikdan, balki onalikdan ham mahrum qilinsa, odillik bo'lardi aslida!  
Darsliklarni mukammallashtirish, o'quv uslublarini yaxshilash bilan birga o'qituvchi tayyorlashning sifatini yaxshilash, ularning safini tozalash ham eng muhim masaladir.

## **RAHBAR MA'NAVIYATI**

Yetmishinchi yillar. “Sветофор” o'yini maktab hayotiga endigina kirib kelayotgan payti. Andijon shahri bo'yicha bu o'yinni bizning maktab boshladi. Men endigina beshinchi sinfga rahbar bo'lgandim. Bu o'yinni sinfim uchun so'rab oldim. Chunki bu sinf g'oyat qoloq edi. Ularning kayfiyati yangilanmasa, bolalarning qalbi uyg'otilmasa, sinf hali-beri

risolaga tusholmaydiganday tuyulardi. Yuragim cho'chib tursa ham, tavakkal qilib tayyorgarlikni boshladik.

Harakatlarimiz qizigandan-qizib ketdi. Men o'tirvolib, bolalarga yubka, pilotka tikaman. Ular esa atrofimda chug'urchuqday savol-javob qilishadi. Bolalardagi junbushga kelgan harakat meni cheksiz zavqlantirar, tongdan qorong'u tushguncha maktabda qolib ketardim. Mazasi qochib qolgan o'g'il-qizimni ham dori-porisi bilan maktabga olib kelardim.

Dastlabki "Svetofor" o'yinida savollarni hakamlar hay'ati emas, jamoa a'zolari berar, har ikki taraf ham javobi qiyin keladigan savollar qidirardilar. Savollarning ichida avtomobilning tuzilishidan tortib, tarixigacha, yo'l belgilari, sonsiz qoidalar, satira, yumor, dramatik parchagacha bo'lardi. Shu tarzda ikki oycha tayyorlandik. Biz yettinchi sinf o'quvchilari bilan bellashadigan bo'ldik. 5-sinfga 7-sinf qarshi qo'yilishining o'zi birinchi noodillik bo'ldi. Xo'p dedim, qaytaga o'quvchilarimga rag'bat berishga, ruhini ko'tarishga urindim.

Mana, o'yin kuni ham keldi, menikilar sahnada harbiychasiga g'oz turishibdi. Boshlarida svetoforning uch rangidagi pilotkalar, o'g'ilu qizning ko'ylaklari oq, shimu yubkalar havo rangda. O'zlariga rosa yarashgan. (Har bir qizning sochini ikki-uch martadan turmaklab chiqqanman!) Shu ko'rinish bilanoq biz 1:0 ga yutib turardik! Raqib sinf esa bechora ahvolda edi. Biznikilarni ko'rgach, ruhlari yanada tushib ketdi. O'n beshovi o'n besh xil ko'rinishda, qo'llar boshqa yoqqa, oyoqlar boshqa yoqqa qiyshayadi. Nutqda na urg'u va na nuqta, vergul bor! (To'g'risini aytsam, bu bolalarga rahmim kelib ketdi!) Xullas, savol-javoblar poyoniga yetdi. Mening sinfim eng ko'p ochko to'pladi. Lekin hay'at raisi (direktor) kutilmaganda 7-sinfni g'olib deb e'lon qildi! Hech yo'q durang ham emas! Bolalar tugul o'zim ham gangib qoldim. Tomoshaga kirganlar hangu mang!

O'quvchilarimni bir amallab tinchitdim-da, direktorning oldiga keldim. Hay'atning yana bir a'zosi bo'lgan ilmiy mudir:

— Siz xafa bo'lmang, sinfingizga gap yo'q, ammo 7-sinf bo'la turib, 5-sinfga yutqazsa, uyat bo'lardi-da, shuning uchun shunday qildik, — dedi yuziga faylasufona tus berib. Va aqling bo'lsa, mening donoligimni keyin tushunib olasan, hozir ovozingni o'chir, deganday ma'noli bosh irg'ab qo'ydi!

Ana sizga "pedagogika"! Birodar, o'zingizni bir zum o'rnimga qo'yib ko'rdingizmi? Tilimga kalima kelmay qoldi. Bolalarimning oldiga borib, irodamni to'pladim-da:

— Rahmat sizlarga. Ishonchimni oqladingiz. Hamma guvoh, siz yutdingiz, bolalarim. Endi borib dam oling, — deya ularni sinfga boshladim. Ular churq etmas, birining rangi oqargan, kimdir labini tishlab, bazo'r turar, kimdir piq-piq yig'lar edi.

Uch-to'rt kun o'tgandan keyin direktor meni chaqirib, hech narsa bo'lmaganday:

— Maktabimiz shahar nomidan falon tuman bilan bellashar ekan, sinfingizni tayyorlang, — dedi.

— G'olib sinf boradi! — dedim gapini kesib.

U esa:

— Tavba, kap-katta odamsiz-ku, yosh bolalarning mayda-chuyda ishi deb shuncha bo'g'ilasizmi? — dedi iljayib.

Hali suyagi qotmagan o'n besh nafar bolaning adolatsizlikka urilishi, qanotlarining sinishi "mayda-chuyda" gap ekanmi? Ularning zavq-shavqlari endigina uyg'onib, uxlab yotgan ichki g'ayratlarini endigina ishga solgan paytimda hafsalalarining pir bo'lishi shunchaki narsami? ...

Xullas, kuningni, umringni, ko'nglingni muzlatadigan bunday «aysberg»lar ruhimizni qaqshatib yonimizda yashayverdilar, tishni tishga qo'yaverdik. Ammo o'sha "qoloq"



sinfim boshlagan ish esa maktabimiz dovrug'ini butun respublikaga olib chiqdi. Mamlakat bo'yicha o'tkazilgan "Svetofor" telemusobaqalarida bir necha bor sovrindor bo'ldik.

\* \* \*

Bir yili esimda, navbatdagi respublika o'yini arafasida uch yashar qizim og'rib qoldi. Ishga sho'ng'ib ketib, shamollashini o'tkazib yuboribman, kasalxonada uzoq yotib qoldik. Bolalarim esa o'yinda qatnashishi shart. Agar yutqazib qo'ysalar, menga fojiaday tuyulardi! Darveshlikni qarangi, o'quvchilarimni kasalxonaga chorlayman, o'nta-yigirmata bo'lib kelishadi. Qizimga hamshirani soqchi qilib qoldiraman-da, kasalxona hovlisining chetroq burchagini topamiz va ochiq havoda, childirmayu rubob chalib, musobaqaning tabrik qismini tayyorlaymiz. Yana uning ustiga qish, oyog'imizning osti qor!...

Jonim og'rib turgan bolamning ichida bo'lsa, rahbariyat rag'bat berish o'rniga faqat xalaqit bersa, bu ishimga hech kim chapak chalib turmasa, shu menga zarurmidi? Yana shuni eslaymanki, o'n yil maktabda ishlagan bo'lsam, o'shancha yil boshim og'rirdi va eng kuchli dorilarni ichdim. Maktabdan ketdimu og'rig'im tindi! Demak, jismi jonim, ayniqsa, asablarim juda tarang holatda ishlagan ekanman. Nima uchun o'zimni shu qadar qiynadim, deyman! Ammo ... agar shu savolni o'sha paytda birov menga bersa, yuz-ko'ziga qaramay sapchir edim-ov! Chunki bolalarning ko'zi, ularning menga ishonib turishlari, suyanib turishlari cheksiz quvvat berar, harakatga chorlayverardi. Nima qilsam, bolalarning ko'ngli uchun qilarkanman. U kunlar mashaqqatli edi, ammo har bir daqiqasi men uchun bayram edi, xotirlagan sari maza qilaveraman...

\* \* \*

O'sha direktorimizni hali-hanuz hurmat qilaman. U odam juda oriyatli, og'ir-bosiq, manmanligi yo'q, gina saqlamaydigan edi. Ammo uning bittagina aybi bor edi — xodimlariga rag'bat berishni bilmasdi. Ha degani tuyaga mador, deganlariday, mehnat qilayotgan odam rahbarning ko'ziga mo'ltirab turadi. Men ishonchni oqlayapmanmi, yo'qmi, shu kasbga yaroqliligim atrofga sezilayaptimikin deb yuragi g'umillab yuradi. Alloh maqtozni sevadi, degan gaplarimiz bor, Yaratgangaki maqtoV yoqsa, bandasiga yoqmaydimi? Qur'oni karimda "bir-biringizdagi fazilatlarni sezganingizni bir-biringizga sezdiringiz" degan joyi bor ekan. Bu qutlug' "sezdirish"dir, chunki u insonni o'ziga ishontiradi, zahira ilhomlari, quvvatlari uyg'onadi. Qarabsizki, bir harakati ikkiga aylanib, faoliyati jadallashadi. Axir bu taraqqiyot deganiku!

Bir kuni direktor chaqiryapti, deyishdi. Xonasiga kirsam, allanarsa yozayotgan ekan. Meni ko'rgach, befarqqina qarash qildi-da:

— Ha, keldingizmi, mana bu sizga ekan, — deya qizil jildli narsani "tap" etkizib stolga tashladi va yana boyagiday yozishga tutindi.

Olib chiqib qaragam, Xalq ta'limi vazirligining zarhal harflar bilan yozilgan "Faxriy yorlig'i" ekan. Insonchilik — nuqsonchilik-da, ba'zan qonimizda izzattalablik ko'pchib turadi: rahbarning bu ishi menga hurmatsizlikday tuyuldi. Yuragim yig'laganday bo'ldi, to'g'risi, yig'ladi ham!

Turgan gapki, bu mukofotga meni rahbarning o'zi tavsiya qilgandir, ha mundog' bir ochiq chehra bilan, "xudo xayringizni bersin, mana bu sizning xizmatingiz uchun" deb topshirsa yarashmabdimi?!

Shunday paytlarda qadringni qidirib qolarkansan. Mana shunaqa rahbarlar qo'lida tashabbuslar o'ladi, g'ayratlar so'nib, bor narsa ham yo'qola boradi!

\* \* \*

Yana bir misol. Qarasam, respublika g'olibi bo'lgan o'quvchilarimga hech qayoqdan hech qanday rag'bat yo'q. Shundan so'ng viloyat yoshlar qo'mitasiga borib, mulohazalarimni aytdim. Ular jamoaning eng faol a'zosi uchun "Artek"ka imtiyozli yo'llanma va'da qilishdi.

Bir kuni tasodifan maktab kattalarining suhbatini eshitib qoldim. Bilsam, haligi yo'llanma kelgan ekan. Ular zo'r berib, uni kimga berishni muhokama qilishardi. "Bu musobaqaning rejissyori ham, mardikori ham anovi devona edi, bir og'iz fikrini bilaylik" deyish yo'q! Biri "Falonchi birinchi sinfdan beri a'loga o'qiydi, shunga beraylik", desa, boshqasi "Falonchi oila juda faol, o'shalarning bolasiga beraylik", der edi. Miyamga qon quyilay dedi, qani bir ko'ray-chi, dedim-da, yo'llanmani shartta olib chiqib ketdim... So'ng bolalarni yig'ib, ular bilan obdon maslahatlashib, ovozga qo'yib, musobaqaning boshidan sidqidildan faol qatnashgan, ammo o'zi o'rtacha o'qiydigan o'quvchini "Artek"ka yubordik.

Faqat "besh" olish uchungina o'qishga mukkasidan ketgan, na sinfnig, na maktabning yoniq hayotiga aralashmaydigan, birorta sinfdoshiga na o'qish, na boshqa ishda yordam qo'lini cho'zmaydigan, ipak qurtiday o'ziga o'zi o'ralib yashaydigan xudbin bolani nega qadrlash kerak?

Mayli, "to'rt"ga o'qisin, goho "uch", adashib "ikki" ham olgan bo'lsin, ammo undan atrofga naf tegsin, odamlar uchun hamisha yaxshilikka moyil bo'lsin, bolani baholashda dastlab shu tomoniga qaraylik. Bu harakatimiz bilan odamiylik birinchi o'rinda ekanligini bolalarga ta'kidlab borgan bo'lamiz.

\* \* \*

Yuqori sinflar bilan katta tayyorgarlik ko'rib, viloyat teatrindan ijaraga kiyimlar olib, adabiy kechalar o'tkazardik. Birinchi yili Abdulla Qahhorning "Og'riq tishlar" dramasi, kelgusi yili Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasidan ko'rinishlar sahnalashtirdik. Bu murakkab ish. Ammo o'quvchilarga rosa yoqardi, ularning yayraganini ko'rib, o'zim ham maza qilardim. Ming afsuski, bizning bu ishlar maktab ilmiy mudiriga yoqmasdi:

— Bolalar bilimdan chal-

g'iydilar, bunday tomoshalarga vaqt sarflamay, uyida ko'proq dars tayyorlasin, — derdi u.

To soat 6 bo'lib, mudir uyiga ketmaguncha bolalar bilan burchak-burchakda berkinib turardik. So'ng kechki sakkiz, to'qqizga qadar tayyorgarlik olib borardik. Mudir oxiri direktorga gap yedirib, maktab zalidagi sahnani buzdirib yuborishgacha bordi. Ammo o'sha sahna o'rnidagi yerda bo'lsa ham, baribir spektakllar qo'yaverdik, lirik kechalar o'tkazaverdik! Tomoshamiz doim gavjum bo'lar, ota-onalargacha yig'ilib kelishardi. Shuncha odam ma'naviy ozuqa olyaptimi, demak, to'g'ri ish qilyapman, deb o'ylardim men...

Qiziq ustida uncha bilmagan ekanman. Mana endi hayotni obdon kuzatib, yoshim bir joyga kelganda afsus chekyapman: rahbarlar bizdan unumli foydalanmabdilar. Nega desangiz, maktabda ishlagan paytlarim eng g'ayratga mingan, kuchga to'lgan faslim ekan. Agar o'sha davrimizda rahbarlardan ishonch va hurmat tuyib turganimizda,

qadamiga kayfiyatimiz tushavermaganda, turfa tashabbuslar, yangidan-yangi g'oyalar bodroqday ochilib ketarmidi?! Inson o'z ichki imkonida nimalar borligini deyarli bilmay o'tadi. Agar rahbar mohir bo'lsa, har bir fe'lining jon nuqtasini topa bilsa, bir muallim to'rt kishilik ishlab berishi mumkin, yana o'z xohishi bilan! Maktab rahbarida gap ko'p ekan.

\* \* \*

Men bir maktab direktorini bilaman. Alloh u insonni rahmatiga olgan bo'lsin. Ismi-sharifi Muhammadjon Sultonov edi. Andijon shahridagi 11-maktabni boshqarardi. Farzandlarimning bari uning qo'lida tahsil olganlar.

O'quvchilar uni yoppasiga yaxshi ko'rardi, desam xato bo'lmas. Maktabni to'ldirib turgan narsa direktorning o'quvchilarga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbati edi. U faqat o'qituvchilik uchun yaratilgan edi, tug'ma murabbiy deb shu kishini ko'rsatsa bo'lardi. U o'quvchilar bilan astoydil gaplashar, hazillashar, o'rni kelganda talabchanlikni ham joyiga qo'yardi. Fanlardan olimpiadalar boshlanganda devorlarda rag'bat va ilhom beruvchi alvon shiorlar paydo bo'lardi. Musobaqalarga jo'natish oldidan direktor har bir o'quvchi bilan alohida suhbat qilardi, ruhini ko'taradi. Ularga ishonch bildirib, kuzatib qolardi. O'quvchilar olimpiadadan qaytadigan kun esa erta tongda eshik oldida baland qomatlarini egib, ularni o'zi kutib oladi. Birma-bir ko'rishib, har biriga munosib gap topib, xursand qilardi.

Shuni ham aytish kerakki, har yili shahar va viloyat olimpiadalariga bu maktabdan 20-30 chog'lik bola qatnashardi. Yilda to'rt-besh nafari respublika olimpiadasi g'olibi bo'lib qaytardi. G'oliblarni qutlaydigan kun bayramga aylanib ketardi. Hujjatlar va yorliqlar musiqa sadolari ostida topshirilardi, sovrindorlarning yelkasiga g'oliblik lentalari tashlanadi... Bunday maktabda o'qish ham, ishlash ham omad-ku, birodar!

... Qizim hikoya qilib beradi. Muhammadjon Sultonov o'zi biologiyadan dars berardi.

O'sha kunlari muallimlar zo'r berib, talashib, tortishib, yaxshi o'quvchilarni olimpiadalarga tanlayotgan payt ekan. Direktor

darsga kiribdi-da, bolalarga birma-bir nazar tashlab turib, yaxshi o'zlashtirmaydigan, to'polonchi bir o'quvchining ro'parasiga to'xtab:

— Olimpiadaga qatnashishni xohlaysanmi? — debdi. Sinf piqillab kulib yuboribdi. Bola esa hangu mang, uyatdan qizarib ketgan.

— Biologiyadan shahar olimpiadasiga sen borasan, — debdi muallim qat'iy, — ertadan tayyorgarlikni boshlaymiz!

Qarangki, shu o'quvchi shaharda g'olib bo'lib, viloyatda ikkinchimi, uchinchimi o'rinni olgan ekan.

Bola murabbiyning qo'lida bamisoli bir polapon, befarq bo'lsang, qanotlari qunishib yoki qayrilib, majruh jon bo'ladi, ixlos qo'ysang, sor lochinga aylanadi.

## **OILA HAM BIR MAKTAB, OTA — BOSH MURABBIYDIR**

Birodar, Sharqning taomili shunday, sharif hadislar ham deydiki, "erkak oilada birinchi rahbardir". Ota-bobolarimiz bu udumga jiddiy rioya qilganlar va o'g'il bola zotiga yoshligidan talabni qattiq qo'yganlar. Hunar o'rgatuvchi ustozlar ham, maktab mudarrislari ham, ota-onalar ham yigitchilik ilmini uzluksiz singdirib borganlar. Erkak uyning qo'rg'oni, to'rt tarafdin keladigan yaxshi-yomon kunlarda oilaning balogardoni bo'lgan. Unga yukunganlar, unga suyanganlar. Undan o'rganganlar, unga maslahat solganlar. Chunki erlarning ma'naviy bilimi, qo'lidan keladigan ishlari shu darajotda

bo'lgan. Onalar esa juftlarining bo'ylarini farzandlariga faxr bilan ko'rsatib, "otangizga o'xshang, ota o'g'il bo'ling" deb tarbiya berib kelganlar.

Ammo bugun ishdan kela solib ag'anab yotadigan yoki kunda shirakayf kelib dunyodagi eng hunuk, eng uyatli tomoshalarni ko'rsatadigan, yo choyxonayu oshxonadan beri kelmaydigan erkak o'z bolasiga nimani o'rgatadi, to'g'rirog'i, u shu turishda murabbiy bo'lishga haqlimi?! Eri bo'la turib, ro'zg'ordagi erkakcha ishlarni doim o'zi bajaradigan ayolning o'g'li nimani ko'rib o'syapti?! Derazasining singan ko'zi bir yildan beri qo'yilmayotgan, uyi o'n yildan beri oqlanmagan, hovlilarini tikon bosib ketgan yoki suvining jo'mragi bir yildan beri buzilib yotgan erkakni ko'rsatib, yaxshi o'g'il tarbiyalab bo'ladimi?

Birodar, ayting-chi, bolaning otasi tirik tursa, ammo uni bu turishda ibrat uchun ko'rsatib bo'lmasa, bu balolig' kunda ona nima qilsin, "bolam, otangning aybg'inalari bor, sen xo'v Faloniyga o'xshagin" deb, bolasiga qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'ydagi nomahram erkakni ko'rsatsinmi?! Dunyodagi eng baxtsiz ayol shu, bu uydagi farzand ham sho'r peshonadir.

\* \* \*

Ilm – nur, bolangiz nurni qabul qilib oladigan zamin, makon. Shu zamin TOZA bo'lsagina nur singadi, undan bog' unadi, yo'qsa, alafzor bo'ladi. Shu zaminning bog' bo'lishi uchun uning egasi sifatida, hurmatli ota, bolangizni nima bilan sug'orib, nima bilan oziqlantiryapsiz? Siz halol yo'l bilan pul topyapsizmi? Savdoda, oldi-berdida odilmisiz? Siz olib kelayotgan rizqda birovning haqi yo'qmi? Bolangiz birov norozi bo'lib bergan "sovg'a"ni kiymayaptimi? Sudxo'rlik bilan topgan foydangizni to'y, ehsonlaringizga aralashirmayapsizmi? Agar shunday xatolaringiz bo'lsa, ming dod soling, ming sakrang: bolangiz – ifloslangan zamin, tarbiyani qabul qilmaydi! O'nta mamlakatda tahsil olsa ham, oxiri voy: boy bo'ladi, ammo baxtsiz bo'ladi. Yashayveradi, ammo dardmand bo'ladi. Baxtli, sog'lom bo'lishi mumkin, ammo Yaratgan uni bag'ritosh qilib qo'yadi, kuch-quvvatdan ketganingizda sizni mehrga, muruvvatga zor qiladi, xor qiladi! Bu mening to'xtamim emas, dunyoning, yashashning falsafasi shunday. Atrofga yaxshilab qarang, birodar, chor-atrof isbotga to'la! Ko'ring va qo'rqing!

\* \* \*

Ixlos qo'yib, qiynalib qurgan uyingiz, to'plagan mol-dunyoingizni sizdan keyin bolalaringiz talashib, sudlashib, sharmandalarcha xomtalash qilmasin desangiz, og'a-iningiz bilan hovli-joy, meros talashmang. Aksincha, ularni uylik-vatanlik bo'lishlari uchun yordamlashing, ular muruvvatigingizni bilsa ham, bilmasa ham, topganingizdan bir bo'lagini (ortinganingizni) jigarlaringizga ilining.

Hadeb ayolingiz va bolalaringiz atrofida aylanavermay, qishloq-qirimlarda qolgan qondoshlaringiz uchun ham bezovta bo'ling, borib diydorlashib turing! Va bu ishlaringizni bolalaringiz ko'rib tursin. Ota-buvangiz o'tgan joylarni ularga ziyoratgoh deb uqdiring, go'dakligidan yetaklab olib boring, mehrini bog'lang. Bolalaringizni yoningizga olib, kindik qoningiz to'kilgan mahallalar, ota-onangizning yoshligi o'tgan ko'chalarga hech yo'q to'rt tup terak ekib keling! Buni ruhlarni shod etish deyiladi. Evaziga esa farzandlaringizda imon uyg'onadi, vijdon uyg'onadi. O'zingiz ikki dunyo saodatiga ega bo'lasiz, inshoolloh!

Siz gaplarimni malol olmang, ensangiz qotmasin, ming bir bahona aytib, o'zingizni oppoq ko'rsatmang. Hamma o'zi uchun yashaydi, men dunyoga bir marta kelaman,

deydigan bo'lsangiz, erta o'tib, indinga o'ng tizzangizga birini, so'l tizzangizga yana birini o'tqizib katta qilgan, joningizning ikki pallasi — o'g'il-qizingiz siz tirik turib, bir-birlaridan tonib ketadilar. Ota-onasining o'limida ham ters qarashib, xo'mrayishib fotihachi kuzatadigan xudobexabarlar yo'q deysizmi!

Jon o'zingizniki, dunyodan o'shanday azoblar bilan ketmayin desangiz, yaroqli paytingizda og'a-inilaringiz ko'nglini va rizoligini olib qoling, birodar!

\* \* \*

Andijonda o'z farzandlarini chaqaloqligidan sizlab gapiradilar, ayniqsa, o'g'illarini! Buni bugungi andijonlik o'ylab topgan emas. Uning zamirida bir hikmat borki, mazkur udum allaqachonlardan beri yashab kelyapti. Bu "Siz o'g'lonsiz, bolam. Oilani tikkalab turguvchisiz. Siz borsiz, demak biz xotirjammiz, sizni hurmat qilmay, kimni hurmat qilaylik" degan ishora emasmi? G'urur, or, tarbiyasi shu emasmi? Bunday e'tibor bolada "sizlanish"ga loyiq bo'lishga harakat uyg'otmaydimi?

Bola birovni ayashni ham, mehr-sadoqat ko'rsatishni ham, erlik, ayollik ilmini ham asosan uyidan oladi. Siz – novda, bolangiz g'unchangizdir, birodar!

\* \* \*

Bir yig'indan chiqib kelayotsam, qirq bilan ellik o'rtasidagi devqomat bir erkak juda mustar holda, maslahatlik ishi borligini aytdi. Chetroqqa chiqib eshitib ko'rdim. Uning puldor o'tgani, dunyoda eng sevgan mashg'uloti pul topish bo'lgani, o'ldirsa ham pul o'ldirsin deydiganlardan ekanligi shundoqqina ko'rinib turardi. Ma'lum bo'ldiki, u uyidan chiqib ketgan. Va nima uchun chiqib ketish sabablarini ayta ketdi! Sanog'i yo'q pullar topgani, ayoliga oltin idishlarda ovqat yedirib, zarlarga o'rab, Yer sharida uni olib bormagan birorta qimmat kurort qolmagani va hokazolarni ipga tizganday sanar edi. Va "menday erdan ajrashishi nonko'rlik emasmi" deya bo'g'ilardi. (Mening esa ko'nglim behuzur bo'ldi. Bola-chaqasiga ketgan sarfini minnat qilgan erkakday xunuk maxluqot yo'q dunyoda!) So'ng ayolining uni qamatishgacha borganini aytib, ko'ziga yosh oldi. — Falokatingiz aribdi, pulga sig'inib yuborganingiz uchun, xudoyim sizga shunday qismat beribdi. Endi Allohdan boylik emas, avvalo xotirjamlik so'rang va hayotingizni qaytadan quring, — dedim.

— Yo'q, opa, — deydi u mo'ltirab, — men oilamga qaytishim kerak. Qanday yo'l tutsam, xotinim men bilan yarasharkin?

Gapining paynovidan anglab qoldimki, u bola-chaqasi yoki ayoli bilan birga bo'lmoqqa emas, xotinning qo'lida qolib ketgan mol-dunyoga sheriklikni tiklash uchun yarashmoqchiga o'xshaydi. Suhbat davomida joyini topib, uning fikrini o'zgartirish, yuragiga yo'l topish, gunohu savobga misollar keltirib, qalbining ko'zini ochishga chandon harakat qildim. Ammo uning dili qulf edi, bu johilga Yaratganning o'zi yordam qilsin! U tinmay "o'g'lim bilan qizim katta bo'lib qolishdi, men ularning yonida bo'lishim kerak," degan gapni pesh keltirardi. Asl maqsad esa haligi! Bu erkak shu qadar betoqat ediki, molu davlatdan ayru tushgandan ko'ra, ayoli botirgan balchiqda emaklab yursa ham mayli, quruq qolmasa bo'ldi! Uning uchun or-nomus, hamiyat, elning nazari bir tiyin! Yigitchilik toptalsa ham mayli!

Birodar, ayting-chi, bu otaning, bu er-xotinning o'g'li, qizi ertaga qanday tutum tutadi va jamiyatga qanday bola beradi?

\* \* \*

Yana o'sha erkakning suhbatiga e'tiboringizni tortaman.

— Qizim pul so'rab keladi, ortinganimni beraman, hech qoniqmaydi. Bir kuni mashinangizni berib turing, bir-ikki kun minib beraman, dedi. Berdim. Ha deganda qaytaravermadi. Qidirib topdim, ha desam, kirakashlik qilyapman, sizning berganingiz nimaga yetardi, axir pul topishim kerak-ku, agar mashinani qaytib olsangiz, o'zimni savdoga qo'yaman, dedi. Shuning uchun, indamay qolaverdim, — deydi ko'zini jovdiratib!

Bo'g'ilib qoldim. Bu odamning o'zbek tilida gapirayotganidan, millatdoshim ekanligidan, uning erkak ekanligidan nomus qilib ketdim. Qiz bilan ota orasidagi muzokarani qarang! Shohona uylarda yashab turib, onasi tirik turib, bo'yiga yetgan qizning kirakashlik qilishi sizga qanday eshitildi? Bu hol otani bezovta qilmayapti, qizining keyingi shartidan sal g'ashlanib turibdi, xolos. Axir u qiz bir tup rayhonday bo'lsa, ertalabdan kechgacha necha yaxshi, necha yaxshimas odam mashinaga tushib, chiqib tursa! Yaxshi-yomon nigohlarning o'zi uni kirlantirmaydimi?!

Har kimning ham bolasi bunday qilolmaydi, otasi shu erkak bo'lgani uchun qizi shunga jur'at qildi, daraxti arzon bo'lgani uchun, danagi sho'r chiqib turibdi.

Bu qiz hozir shaytoniy ishtiyoqqa to'lib turibdi, otasidan bir ishora bo'lsa bas, ya'ni "mashinani qaytar" buyrug'i bo'lsa, tamom, "o'zini savdoga qo'yish"ni boshlab yuboradi.

Qo'ng'izdan qo'ng'iz, suvarakdan suvarak tarqaydi.

Kimdan kim bino bo'lganini ko'rib turibsiz, birodar!

*Yo rab!*

*Ki erkak qandayin erkak, yuzida yuzta rang bo'lsa,*

*Ki u er qanday er, ahli ayolin holi tang bo'lsa.*

*U qay zotki, oti eru so'zida quvvati yo'qdir,*

*Qizu o'g'lin huzurinda ibratu izzati yo'qdir.*

*Gulni gulga, sherni sherga, yigitni erga o'xshatg'il,*

*Vatanni erkagin tikla, o'g'li bor yerga o'xshatg'il!*

## ONA BUYUK MURABBIYDIR

Ayol borki, ona bo'lishni orzu qiladi. Onalik esa bittagina yumushdan iboratdir. Ya'ni u — murabbiylik. Onalikka saylangan odam umrining oxirigacha shu kasbi korga ham saylanadi. U nafaqat bolasiga, balki juftiga ham murabbiydir. Jufti bilan farzandiga kerak bo'ladigan atrofdagi hamma odam va hamma narsaga murabbiy va himoyachidir! Onalik unvoni va saltanatiga ega bo'lgach, ayolning yuragi qayta yaraladi, jami faoliyati, falsafasi shu saltanatning iqlimiga moslashadi. Ayol ona bo'lgach, o'zini unutadi, qatordan chiqaradi. Hatto uning o'zida o'zi uchun joy qolmaydi: xayoli bolasida, ko'zi faqat uni qidiradi, tilida faqat u, dilida faqat u, qo'li doim unga nimadir yasaydi, oyog'i bolasining tashvishi bilan u yoqdan bu yoqqa yugurgani yugurgan. Aqli raso ayol borki, onalikning yo'lida bittagina umrini qurbonliqqa qo'yadi! Bu mo'jiza zotni Yaratguvchiga hamdu sanolar va tasannolar bo'lsin!

Ayol borki, onasining tutumini tutadi. Erkak zoti borki, umrining poyonigacha onasining damlagan choyi, pishirgan ovqatini qo'msab o'tadi. Onasini yo'qotgan odam borki, to yetgan joyigacha uning nasihat va vasiyatlariga amal qilishga harakat qiladi. Bundoq o'ylab qarasang, bu dunyoning asosiy tarbiyachisi ONAI MUHTARAMALARDIR! Ularning poyi qadamlariga ming tasadduq bo'laylik!

\*\*\*

Qush borki, inida, odam borki, onasida ko'rganini qilar ekan, ilm degan narsani avvalo ayol zotiga bersin! Uning fe'lu atvoriga poklik bersin! Yuragiga g'ayrat va shijoat, o'zidan MURABBIY yasab olguncha iroda, sabr, qanoat va salomatlik bersin!

Bolasi hali zaminga tushmay turib, ona unga berarining to'qson foizini berib bo'ladi. Ona joni, qoni, suti bilan bolasining sifatini yasab bo'ladi. Shuning uchun ham, onalikka tayyorlashni qiz bolaning sochi jamalak paytidan boshlash kerak.

\* \* \*

Qizlarimiz yoshligidan kitobxon bo'lishiga intilaylik. Kitob uning xayollariga qanot beradi, tafakkuri o'sadi, inson ruhiyati bilan tanishtiradi. Kitob ko'rgan kishi odamlar bilan muomalani o'rganadi. Kitob unga dunyoni ko'rsatadi. Hayrat beradi, sevinch va qayg'u qaerdan bino bo'lishini bildiradi. Axir, bu ulg'ayish degani. Va qizimizning bu bisoti bir kuni bolasiga bexato o'tadi.

\* \* \*

Qiz farzandlarni sayru sayohatlarga ko'p olib chiqmoq kerak. Toki uning ko'zlari kengliklarni, tog'larni, daryo-ko'llarni ko'rsin, ruhiyati, tomir-tomirlari yayrasin. Lolazor qirlarni ko'rib tuyg'ulari alvonlansin! Gullagan shaftolizor, olmazorlar ichida yuraklari gulga to'lib ketsin! Ana o'shanda undan bahorday bolalar dunyoga keladi!

\* \* \*

Musiqani, ayniqsa, milliy musiqamizni bolamizga beshikdalik paytidan eshittirib boraylik. Tasviriy san'at, milliy hunarmandchilikka mushtdayligidan boshlab e'tiborini tortaylik, toki undan tarqaladigan naslning ta'bi nozik bo'lsin, umrni nima bilan bezashni o'rgansin, zavq-shavq bilan yashash sirlarini biladigan bo'lsin.

\* \* \*

Qiz bolasi bor uyda aya-buvilar doim orasta yursinlar, yarashimli kiyinsinlar. Qizlar go'zallikka tug'ma intiluvchandir, ular, ayniqsa, o'z onalarini eng chiroyli bo'lishini xohlaydilar. Bu payt ularda did shakllanayotgan bo'ladi, siz o'z turish-turmushingiz bilan qizchangiz huzurida unga mudarrislik qilyapsiz, ko'zlarini zeriktirmaylik, nigohlarini xunuklikka ko'niktirmaylik.

\* \* \*

Tunov kuni bolalarimning gurungi qulog'imga chalindi. O'ttizga yaqinlashib qolgan kenjatoyim bog'cha bola paytlarini eslab, zavqlanib derdi:

— Tug'ilgan kunimizda ayam yangi, chiroyli to'shaklarga o'tqizardilar, eslaysizmi?! O'sha kuni hech kim ish buyurmasdi, noto'g'ri ish qilib qo'ysak ham urishmasdilar, podshoh bo'lib yurardik-a!

Opa-akalari gur-r etib unga qo'shila ketishdi ... Tug'ilgan kunlarida qanday yayragan bo'lsalar, eslayotganda ham o'shanday yashnab, charaqlab so'zlardilar. Ko'rdingizmi, inson ruhiyati – mo'jiza. Go'dakligida xush ko'rgan bir lahzani o'nlab yillar o'tsa hamki, bag'riga bosib yasharkan. Bu degani o'ttiz yil burun bergan arzimagan rag'batimiz ularni hanuz boyitib, qalban o'stirib kelmoqda ekan!

Farzandlarimizning odamoxun, ko'ngilparvar bo'lishini xohlasak, ularning yuragini sindirib qo'ymaylik, kayfiyati bilan hisoblashib katta qilaylik.

\*\*\*

Qizchalarimizga bir yarim, ikki yoshidan boshlab, ro'molcha taxlash, sochiq taxlashlarni o'rgataylik. Kirlangan qo'lni, shira tekkan yuzni darhol yuvishni odat qildiraylik. O'yinchoqlarini o'z joyiga, kiyimlarini o'z joyiga qo'yishini qattiq nazorat qilaylik. Bu tartib uning fe'liga aylanib ketsin, shundagina bolasiga ham o'tadi. Insondagi rag'batga ehtiyojmandlik Alloh dandir. Bolalarning har bir to'g'ri ishini payqaganimizni o'ziga bildiraylik va tashakkur bildirishni ham unutmaylik. Bola kichkina joni bilan bizni rozi qilishga tirishib, tirmashdi va roziligimizni oldi. Ilohim, bu insoniy fazl va rohatlar uning bolasiga ham o'tsin!

\*\*\*

Biz – daraxt, bolalar mevamiz emaski, ular shig'il pishganda odamlarning oldiga qo'ysak, bir o'tirishda yeb, duo qilib ketaversalar va shu bilan ishimiz tugasa! Bolalar aslimizni, naslimizni asrlardan asrlarga tashuvchilardir! Yaralishiga biz sababchi bo'ldik, aslida ular Allohning ne'matlaridir! Xo'sh, bu ne'matlarning ta'mini biz buzib qo'ymadikmi? Bolalarimiz nimaga yaroqligu nimaga yaroqsiz?! Ularni shu turishlarida odamlar orasiga qo'yib yuborsak, hech kimga ziyoni bo'lmaydimi, yaxshi inson bo'lib yashay oladimi? Birodar, siz o'zingizga shu savollarni berib ko'rasizmi va qo'rqib ketasizmi? Men juda qo'rqaman ...

Ona qobirg'alari ostida bino bo'lgan kurtak qanday qilib insonga aylanadi? U onasining jon tarkibidagi jami unsurlardan shimib, yuragidan yurak ko'chirib, fe'lidan rang olib, onasi siqilsa kichrayib, yayrasa yayrab odam shakliga kira boradi. U bir ilohiy mavjudlik, u ziyrak quloq va o'tkir ko'zdir – qorinda turib, tashqi muhitni eshitadi va ko'radi, bitta ta'sirdan gurkirab o'ssa, biridan tug'ilmay turiboq zaha bo'ladi!

Hurmatli ona oyim, nabirangizga murabbiylikni qizingiz voyaga yetmay turib boshlang.

Hurmatli qaynona oyim, keliningiz kelgan kundan boshlab jonini parvarishlang, yuragini yashnating, toki u sizga jismonan va ma'nan butun bola tug'ib bersin!

\*\*\*

Yuklik qizim, senga ona bo'lish nasib etib turibdi. Bola sening joningdan yaraladi va senga bu yaralma uchun buyuk mualliflik unvoni beriladi. Qanday martabada ekanliging hamisha yodingda tursin! O'z joningni, salomatligingni asrasang, bolangni ham asragan bo'lasan. Tartib bilan ovqatlanmasliging, asabingni saqlay bilmaganing, zo'riqib mehnat qilishing, o'ta sovuq, o'ta issiq ichra bo'lishing, toru tang kiyinishlaring va hokazolar ichingdagi bolani azoblash, jazolashdir! Bolang biron bir aybli yoki nozik tug'ilsa, sababchi o'zing va faqat o'zingdirsan! Chunki u sening badaningga yopishib turibdi, sen orqali nafas olib turibdi, aybdor sen bo'lasan-da!

\*\*\*

Emizikli payting bola uchun yanada nozik davrdir. Qo'lingdagi bir parcha go'sht sening iqlimingga qarab har soniyada o'zgarib turadi. Har bir harakating bilan uning yo yaxshi, yo yomon qismatiga muhr bosib borasan. Agar uning ko'zlariga shukrona bilan boqib,



uning borligidan yayrab, baxtiyorlik bilan chiroyli duolar tilab, niyati shirin allalar aytib emizsang, bolangning butun jismi nurlanadi, ruhiyati chamanzor bo'lib ketadi, tomirlarida sog'lom va kuchli hujayralar uyg'ona boradi.

\* \* \*

Oyim qizim, sen yuklik va emiziklik paytingda hech kimni yomon ko'rma, bola bu holatingda sut emas, nafrat emadi, katta bo'lsa, odamovi, hammadan yomonlik kutadigan bo'lib qoladi!

Birovni yomon ko'rmaslikning iloji bor: biz ming bo'g'ilaylik, hammani yoppasiga o'z didimizga moslay olmaymiz. Sening avloding boshqa, tarbiyang boshqa! Senga yoqmayotgan odam esa butunlay boshqa bog'dan, farq qiladi-da! Musichadan chumchuqlikni, bo'ridan qo'ylikni so'rolmaymiz-ku, har odamni o'ziday qabul qil, u imkonida borini namoyon qilyapti, sen ham unga munosib muomala top, unga talablar qo'yma!

\* \* \*

Agar emizish paytida birovni qarg'ab, jahl bilan o'tirsang, bolang sut emas, qarg'ish, g'azab emadi. Bu degani ona bo'la turib, dushmanning ishini qilding: norasida jonga nafrat, andishasizlik urug'ini ekding, katta bo'lsa, har kimdan kir qidiradigan, salga jahлга minadigan nodo'st, alamzada bo'lishi mumkin.

\* \* \*

Yuklik va emizikli paytingda o'zingni qo'lga ol, pastkash va mayda tuyg'ulardan xalos bo'l, ya'ni o'rinsiz rashk, vaqtinchalik yo'qchiliklardan o'ksish (har qanday qiyinchilik va yo'qchilik o'tkinchidir!) va ko'zda yig'ing bilan bola emizma! Ayni vaqtda bola sutmas, xuddi shu narsalarni emadi! Xudo ko'rsatmasin, u ulg'aysa, tund, hech narsadan ko'ngli to'lmaydigan, bo'la-bo'lmasga ko'z yosh to'kaveradigan, irodasi, shukronasi yo'q, rohat nimaligini bilmay o'tadigan tushkun kimsa bo'lib qolishi mumkin!

\* \* \*

Boshqorong'i yoki emizikli ayol ko'ngli nima tusasa, yeyishi shart. Chunki u narsani onaningmas, bolaning badani so'raydi. Bizning udumda qo'shni kelinning ko'zi nimaga tushsa, uminib qolmasligi uchun, ketidan albatta o'sha narsadan nasiba chiqariladi. Chunki baliq suvdan tashqarida qanday betoqat bo'lsa, ko'ngli sust ketgan narsani yemasa, kelinlar shu ahvolga tushadilar. Qolaversa, bolaning ham bir murvati zaif tug'iladi.

\* \* \*

Ba'zan onalarda sut qochadi. Va bu bexosiyat sanaladi. Qachon va nima uchun sut qochadi? Onalar bir narsadan qattiq qo'rqsalar, o'ta yomon xabar eshitsalar yo onaning salomatligida inqilobiy o'zgarish bo'lsa, shu hol ro'y beradi. Mana shu o'rinda Yaratganning qudratiga tan bermay ilojimiz yo'q! Va har bir insonga uning cheksiz muhabbat va muruvvati qaratilganining yana bir karra guvohi bo'lamiz: ona quvonib emizsa, bola sutmas quvonch emadi, yig'lab emizsa, ko'z yoshini emadi deyapmiz.

Yuqorida aytganimizday, ona juda qattiq siqilsa yo qo'rqsa, uning suti bola uchun juda xatarli narsaga aylansa kerak. Shuning uchun go'dakkinaning g'amini Alloh yeydi va onaning sutini O'zi to'xtatadi, bola omon qoladi!

\* \* \*

Qaynona oyim va kuyov yigit! Anovi bola emizib o'tirgan juvon shunchaki bir inson emas, sizning avlodingizni, umringiz davomini, ikki dunyoingizni obod qiladigan zurriyodingizni dunyoga keltirgan Allohning mo'jizasidir! Unga osmon bo'lib, boshida panohlik qiling, zamin bo'lib, uni o'stiring, ko'kartiring! Chunki u shu turishida yuz foyiz SIZ UCHUN zahmat chekyapti. Bolasiga yuklik ayolning yomon — yaxshisi yo'q! Axir u o'zidan ODAM yaratyapti, unga ko'mak bering, uni qo'llang, qo'ltiqalang! Undan nuqson qidirmang, o'zingizga nomunosib saylamang! Bu ayol sizning ostonangizda tasodifan paydo bo'lib qolmadi! U sizning niyatingiz, savob va gunohlaringiz, olgan duo yoki qarg'ishlaringiz evaziga taqdiringizga bitilgan ulush! U – qismat! Siz shunga munosibsiz. Yuklik yo chaqalog'i bor kelinni o'ksitmangiz, dilini og'ritmangiz, to bolasini ko'krakdan ajratguncha, kirpi bo'lsa-da yumshog'im deb turingiz.

Bola emizayotgan ayol birovdan qo'rqmasin, cho'chimasin. "Ana, hozir bir narsa deydi, mana aybimni aytadi yoki bugun ham ichib kelsa, nima tomosha ko'rsatar ekan deb" vahima xavotir ichida yashamasin. Alqissa, bolasi hurkak, jur'atsiz va qo'rqqoq bo'lib ulg'ayadi. Bu zotning aynishidir, birodar!

## **XOTIMA** **Qismatimdan roziman**

Men atrofimni o'rab turgan ne'matlardan umr bo'yi qarzdor yashayapman. Ota-onamning yetti mozorga chiroq yoqib, kokil qo'yib, kipriklariga o'tqizib katta qilgan erka qizi edim. Meni bir bora ham chertmaganlar, so'kmaganlar, tergamaganlar. Ular uchun men o'lmay yursam bo'ldi edi. Ko'nglimga kelgan ishni qilib, og'zimdan chiqqani muhayyo bo'lib ulg'aydim. Bag'rim sidiriladigan armonim shuki, onajonim, dadajonim mendan hech qachon gina qilmadilar, hech narsa so'ramadilar! Vodarig', ularning ko'nglidagiday farzand edimmi? Bola topib, chigillari ota-onaday yozilib ketdimi yo yo'q? ...Ko'rib turibsizki, o'zimning ko'nglim to'ladigan farzand bo'la olmadim.

Xo'sh, qanday beka bo'ldim? Tongda ketib, shomda qaytib, uy bilan ishning oralig'ida bo'zchining mokisiday yuguraverdim. Ovqatning osonini pishirib, shosha-pisha kir yuvib, bo'g'ilib dazmol qilib, er deganning ko'zigayu so'ziga astoydil quloq sololmay, quloq solgani vaqt topolmay yashab keldim. Ming xijolatchilik bilan aytamanki, ko'ngildagiday juft ham bo'lolganim yo'q!

Onaday ona bo'loldimmi? Bolalarimga ertaklar aytish o'rniga tunlari dasta-dasta daftar tekshirdim yoki o'tirvolib she'r to'qidim, ularning kayfiyati, xohishlarini so'rash o'rniga uyga zilday charchoqlarimu uyulgan qaboqlarimni olib keldim. Yuragimga sig'ib, o'g'il-qizlarim bilan bog'u rog'larda yetaklashib, chaqchaqlashib yurmadim. Atrofimga o'tqizib olib turfa kitoblar o'qib berolmadim. Ko'rib turibsiz, mening ona sifatidagi bahoim ham qoniqarsizdir!

Ammo Alloh menga o'qituvchilikday kasbu kor berdi. Har bor sinfga kirib, bolalarning ko'ziga ko'zim tushishi men uchun huzur edi. Har gal saboq berar ekanman, yuragim bodroqday ochilayotganini, bo'g'zimga to'lqinlanib, taxlanib, gurkirab kelayotgan so'zlar bayoniga bitta tilim yetmay qolayotganini his etardim. Sinf go'yo pianino, o'zimni esa barmoqlarini zavq bilan klavishlar uzra yugirtirayotgan cholg'uchiday sezardim! Bu kasb

jonimni toliqtirdi, sochimni oqartirdi, ammo men undan farax topdim, qismatimdan ming bora roziman! Kasbiki kishiga rohat beryaptimi, ilmu hunaringdan boshqalar na'f olyaptimi, shuni ko'rganing izlangan baxtdir!

Taajjublisi shuki, men hech qachon o'qituvchi bo'laman deb orzu qilmaganman. Universitetni bitirgach ham, rejam gazeta-jurnal redaksiyalarida ishlash edi, ammo taqdir maktabga yo'naltirdi. Dastlabki bir yilda baribir bu yerdan ketaman deb yurdim. Ammo jonimning bir tolasi shu dargohga bog'lanib qolayotganday tuyila bordi, ketishni o'ylagan sarim, yuragim shuvillashga tusha boshladi. Yana picha ishlaychi dedim. Qarabsizki, shu tarzda maktabda makon topdim.

### **YASHASIN SO'Z!**

Men amin bo'ldim, shoirlik kabi o'qituvchilik ham ilohiy in'om ekan. Qoningda murabbiylikning xamirturushi bo'lmasa, o'nta o'quv dargohini "a'lo"ga bitirsang ham, olim bo'lishing mumkin, ammo orzudagiday o'qituvchi bo'lolmaysan. Xuddi, shoir qaysi sohada ishlamasin she'r yozavergani kabi, haqiqiy murabbiy ham qaerda, kim bo'lishidan qat'iy nazar, kimnilir, nimanidir o'stirish, parvarishlash, himoyalash bilan umri o'tib ketarkan.

Mana yoshim oltmishdan oshib boryapti. Maktabdan ketdim, ammo minbardan ketmadim, keta olmadim. Agar bir oy tinglovchilar qoshiga chiqmasam, yuragimning yuki og'irlashib ketadi, go'yo odamlarning omonati menda qolganday va tezroq egalariga topshirmasam, xiyonat qilayotganday betoqat bo'laveraman. Bir she'rimda aytibman:

*Meni so'zdin judo qilma, so'zimdin o'zga bojim yo'q,  
Bayotim – so'z, qanotim – so'z, usiz dastu qulochim yo'q...*

*Tilimning bulbuli ko'ngling qatida gulni uyg'otsa,  
Muattar olamim shuldir, mening-chun o'zga ochun yo'q.*

Shunday, murabbiyning dastmoyasi – so'z. U so'z bilan muolaja qiladi. Muallim tinmay so'z yig'adi, so'ng ularni ustaxonasida charxlaydi, jilo beradi, keyingina odamlarga tarqatadi. Bu so'zlar borib yuraklarda, xotiralarda o'rnashadi, ildiz otadi va kuni kelib, egalarining taqdirida katta-kichik inqiloblar yasaydi! Albatta, shunday qismating uchun shukronalar aytasan! "Yashasin so'z, yashasin minbar, yashasin murabbiylik!" deya hayqirgning keladi.

**"Ma'rifat" gazetasidan olindi.**